

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
ToshKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

«TASDIQLAYMAN»

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti
rektori Sh.Sirojiddinov**



30-oktabr 2025-yil

**10.00.07 – «Adabiyot nazariyasi» ixtisosligidan
tayanch doktorantura (PhD)ga kirish imtihoni
DASTURI**

Toshkent – 2025

Ushbu dastur Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi (2025-yil 28-oktabrdagi 4-sonli bayonnoma).

Tuzuvchilar:

f.f.d., prof. B.Karimov,

f.f.d., prof. U.Jo'raqulov

f.f.d., prof. U.Rasulova

KIRISH

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” va “Davlat ta’lim standartlari”da yoshlarni har tomonlama komil insonlar etib tarbiyalash vazifasi belgilangan. Bu mumtoz madaniyatimiz va qadriyatlarimizni anglash, o‘zlashtirish, ajdodlarimiz targ‘ib etgan ma’naviy-axloqiy mezonlarni talabalar ruhiyatida ulg‘aytirish asosida amalga oshiriladi.

10.00.07 – Adabiyot nazariyasi ixtisosligi bo‘yicha tuzilgan malakaviy imtihoni dasturi filologiya fanining ushbu tarmog‘iga oid nazariy bilimlarni qamrab olishga qaratiladi. Ushbu dastur tizimli ravishda shakllantiriladi. Maqsad talabgorning yuqori malakali mutaxassis bo‘lib yetishishidir. Bunda Sharq va G‘arb poetik tafakkuri tarixi, zamonaviy jahon adabiyotshunosligi, adabiy-nazariy tafakkurga doir ishonchli manbalarga tayaniladi.

Talabgorlar o‘z milliy adabiyoti nazariyasi tarixi, zamonaviy adabiyotshunoslikning dolzarb muammolarini bilishi va to‘g‘ri talqin qila olishi, milliy adabiyotshunoslikni jahon nazariy tafakkuri kontekstida tushunishi bugungi ilmiy-adabiy jarayon rivoji uchun o‘ta muhimdir. Shuningdek, milliy adabiyot nazariyasining jahon standartlari darajasiga yaqinlashuvi milliy ma’naviyatimiz, adabiyotimiz, ijtimoiy hayotimiz rivojini ta’min etadigan omillardan biridir.

Adabiyot nazariyasi fanining ob’ekti, predmeti va vazifalari

Asosiy san’at turlari, ularning kelib chiqishi va bir butun san’at tizimi sifatidagi estetik funksiyasi, ayni tizimda so‘z san’atining o‘rni va ahamiyati. So‘z san’ati spesifikasi. Adabiyotning etik, estetik va ijtimoiy vazifalari. Adabiy tur va janrlar. Badiiy asar. Ijod jarayoni. Ijodiy metod masalalari. Qahramon, obraz, portret va xarakter muammolari. Syujet, kompozitsiya va fabula. Badiiy asar arxitektonikasi. Badiiy til va uslub. Sharq va G‘arb poetikasining umumiy va xususiy jihatlari talqini.

Adabiyot nazariyasi fani – adabiyot tarixi, adabiy tanqid, matnshunoslik va manbashunoslik, adabiyotshunoslik metodologiyasi, falsafa, psixologiya, sotsiologiya, etika, estetika singari qator boshqa fan sohalari bilan uzviy aloqadorligini ko‘zda tutish. Ushbu fan yuzasidan tadqiqot usullarini ishlab chiqish. Tadqiqot jarayonida zarur bo‘ladigan nazariy tushuncha va terminlarni sistemaga solish.

ASOSIY QISM

Adabiyot nazariyasi

San'atning kelib chiqishi va turlari. San'atning asosiy turlari: Me'morlik, haykaltaroshlik, rassomlik, musiqa, raqs, so'z san'ati. Ularning genezisi masalalari. Har bir san'at turining spetsifik o'ziga xosligi va umumiy jihatlari. Bunda material, ijodkor va ijodkor estetik qarashlarining ahamiyati. San'at turlari differentsiatsiyasi. Keyingi davrlarda paydo bo'lgan sintetik (qurama) san'at turlari haqida umumiy tushuncha. Ularning so'z san'ati bilan munosabati.

Adabiyot so'z san'ati sifatida. Adabiyotning lug'aviy ma'nosi. Adabiyot termini va uning tarixiy taraqqiyot bosqichlari. Adabiyotning falsafa, estetika, psixologiya va boshqa sohalar bilan munosabati. Adabiyotda mazmun-shakl uyg'unligi masalasi. Adabiyot va estetik kategoriyalar. Badiiy adabiyotda pafos. Go'zallik tushunchasi adabiyotning asosi sifatida. Obrazlilik va obrazli tafakkur. Til va badiiy uslub.

Adabiyot nazariyasi va adabiyotshunoslik metodologiyasi. Metodologiya adabiyot nazariyasining asosiy muammolaridan biri sifatida. Nazariy poetikaning tarixiy poetikaga tayanishi. Jahon poetik tafakkuri tarixi va ilmiy-nazariy metodlar haqida tushuncha. Qadim hind, qadim xitoy va qadim yunon adabiy-estetik tafakkuri. Aristotel, Forobiy, va Navoiyning poetik qarashlari. Qiyosiy-tarixiy, tipologik, formal maktab. Struktural, biografik va psixoanalitik metod xususiyatlari. Germenevtik metodning o'ziga xosligi. "Yangi tanqid" xususida. M.Baxtin va uning polifoniya hamda xronotop nazariyasi.

Tarixiy poetika va adabiyot nazariyasi. Tarixiy poetika ilmini kashf etgan adabiyotshunos sifatida A.N.Veselovskiy e'tirof etilishi. Uning adabiy davrlarning maydonga kelishida evolyusion tipologiyaga urg'u berishi. Bu jarayonlarni G.V.F.Gegelning ob'ekt-sub'ekt-ob'ekt+sub'ekt (ya'ni dastlab epos – ob'ekt, keyin lirika – sub'ekt, oxirida drama – ob'ekt+sub'ektning maydonga kelganligi) formulasi asosida tushuntirgani. formulasiga ko'ra talqin etishi. O.M.Freydenberg tadqiqotlarida esa A.Veselovskiy evolyusion tarixiy poetikaga doir qarashlarini rad etilishi. Olimaning "har qanday hodisa o'zaro zid fazalarning doira bo'ylab harakatidan iborat"ligi haqidagi fikrlari. Shundan kelib chiqib, genezis nazariyasini birinchi planga qo'yishi. M.M.Baxtin "katta zamon" ichidagi dialog, "men" va "birov", "muallif" va "qahramon" nazariyalarining tarixiy poetika taraqqiyotida muhimligi.

Tarixiy poetikaning spetsifik muammolari. Tarixiy poetika spetsifikasining nazariy poetika yoki adabiyot tarixi fanlari spetsifikasidan farq qilishi. Ayni paytda har ikki fan uchun fundamental ahamiyatga egaligi. Tarixiy poetika har qanday san'at hodisasining genezisi, tarixiy shakllanish jarayonlari, bosqich va taraqqiyot usullarini o'rganishga qaratilishi. Tarixiy janrlar, syujetlar, kompozitsion qurilishlar, tarixiy motivlar, obrazlar va uslublarning qiyosiy-tipologik tadqiqi mazkur fan spetsifikasini tashkil etishi.

Nazariy poetika va adabiyot nazariyasi. “Nazariy poetika” istilohi. Uning adabiyot tarixi, tarixiy poetika va struktural poetika bilan munosabati. Nazariy poetika ilmining paydo bo‘lishi. Nazariy poetika ilmining asoschilari hamda bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar. Badiiyat nazariyasiga oid tadqiqotlar, ishlab chiqilgan nazariy kanonlar, kriteriylar nazariy poetikaning asosiy ob’ektlari sifatida. San’at va uning turlari, so‘z san’ati, badiiy asar, zamonaviy adabiy janrlar, she’r tuzilishi, badiiy shakl va mazmun nazariy poetika predmeti ekanligi. Nazariy poetikaning Adabiyot nazariyasi fanining fundamental asosi bo‘lib xizmat qilishi.

Badiiy so‘z va uning boshqa san’at turlari bilan munosabati. San’atning kelib chiqishi. “San’at” istilohi va uning asosiy turlari: me’morlik, haykaltaroshlik, rassomlik; musiqa, raqs, so‘z san’ati. Ularning estetik ob’ekt (material)ga ko‘ra farqlanishi. Sintetik san’atlar: teatr va kino. So‘z san’atining mohiyati va spesifikasi.

Biografik metod. Ushbu metodning ijodkor biografiyasi bilan uzviy bog‘liqligi. Ijtimoiy omillarning biografik metodning shakllanishidagi o‘rni. Biografik metod va falsafa. Biografik metod va tarix. Biografik metod va genetika. Biografik metodning psixologik va psixobiografik omillari. Biografik metodning shakllanishida Sharl Sent-Bayov ilmiy-tanqidiy faoliyatining o‘rni. Andre Morua tadqiqotlari biografik metodning yangi bosqichi sifatida. O‘zbek adabiyotshunosligi va biografik metod.

Psixoanaliz va badiiy ijod. Psixoanalizning maydonga kelish tarixi: Z.Freydning psixoanalitik tadqiqotlari. K.Yung va E.Fromm neofreydistik qarashlari. Libido, ego, superego psixoanalitik talqinnig kalit tushunchalari sifatida. Psixoanalizda biofil va nekrofil tushunchalari. Psixoanalizning badiiy ijod bilan bevosita va bilvosita munosabati. Sofokl, Shkekspir, F.Dostoevskiylar ijodi psixoanalitik talqin kontekstida. Psixoanaliz va Sharq ma’rifiy tafakkuri aro ziddiyatlar, buning sabablari. Psixoanalizning cheklangan jihatlari.

Badiiy ijod va ijodiy jarayon masalalari. Badiiy ijodda ijodkor pozitsiyasi, dunyoqarashi va milliy mansubligining ahamiyati. Ijod jarayoni: mavzu tanlash, material yig‘ish, materiallarni tizimli joylashtirish, yozish jarayonlari. Ijodiy jarayon va estetik ideal. Ijodiy jarayonda pafos go‘zallik, xunuklik, fojiaviylik, dramatiklik, komiklik, sentimentallik. Ijod psixologiyasi. Ijod jarayoni va ijodiy metod mushtarakligi.

Badiiy adabiyotda umuminsoniylik, milliylik va individuallik. Estetik idealning yuksakligi va adabiyotda umuminsoniylik masalasi. Milliylik har qanday adabiyot namunasining mohiyatini tashkil etishi. Adabiyotda xalq tili va folklor elementlari. Zamonaviy adabiyot va milliy til. Estetik ideal va milliylik. Ijodkor individualligi: uning ijtimoiy, falsafiy va psixologik omillari.

Badiiy asarda mazmun va shakl uyg'unligi. Badiiy asar tushunchasi: badiiy, nazariy va estetik kriteriylari. Badiiy asarda mazmun va shaklga xos komponentlar. Shakl va mazmun uyg'unligi badiiylarning muhim sharti ekanligi. Badiiy asarda mavzu va g'oya. Badiiy asarda syujet, kompozitsiya va fabula. Qahramon, obraz, portret va xarakter muammosi.

Badiiy obraz va obrazlilik. Obrazli tafakkur va obrazlilik. Obraz yaratishda badiiy til va uslubning ahamiyati. Badiiy asarda obraz. Badiiy asar obrazlari tizimi va ilmiy-nazariy tasnif muammosi. Badiiy obraz va xronotop.

Tarixiy obraz. Tarixiy obraz spesifikasi. Tarixiy obrazning turlari. Epik asarlarda tarixiy obraz. Dramatik va lirik asarlarda tarixiy obraz. Tarixan real voqelik va tarixiy obraz munosabati. Tarixiy obraz talqinida badiiy to'qimaning o'zni. Tarixiy-biografik obraz. Tarixiy romanda "volter-skotcha" obraz shakli. O'zbek tarixiy romanlarida bosh qahramon masalasi.

Adabiy tur va janrlar. Adabiy tur haqida tushuncha. Adabiy turlar spesifikasi. Adabiy janrlarni belgilash prinsiplari. Nazariy kriteriylar masalasi. Epos va uning janrlari. Lirik: Sharq she'riyatiga xos lirik janrlar. G'arb poeziyasi janrlari. Drama: tragediya, drama va komediya. Dramada pafos masalasi. Sintetik janrlar: tragikomediya.

Roman janri. Roman janrining shakllanish omillari. Qadim Yunon romani. Ritsar romani va uning turlari. Uyg'onish davrida roman takomili. Yangi davr Yevropa romani. Realistik roman va uning shakllari. Sentimental roman. Ma'rifatchilik romani va uning spesifikasi. Modernizm adabiyotida romanning o'zni. Postmodernistik roman xossalari.

Drama janri. Dramaning maydonga kelish tarixida mif va marosimlarning o'zni. Dramaning o'rta janr ekanligi. Tragediya, komediya va drama o'rtasidagi umumiy va farqli jihatlar. Yevropa dramasi o'rta asrlardagi ko'rinishlari: liturgik teatr, misteriyalar, mimlar. Klassitsizm dramalari. Dramada obraz, kompozitsiya va konflikt masalasi. Milliy dramaturgiya va uning omillari.

Tuyuq janri. Tuyuq janrining spetsifik xususiyatlari. Tuyuq janrida vazn, qofiya, radif masalasi. Tuyuqning tarixan turkiy adabiyotga xos janr ekanligi. Tajnisning milliy til xususiyatlari bilan bog'liqligi. Ataulloh Husayniy va Ahmad Taroziylar tuyuq haqida. Navoiy tuyuqlarining badiiy o'ziga xosligi. Saj' va tuyuq munosabati.

She'riy vaznlar masalasi. She'riyatda hiyo va tovush (tonik) sistema. Gekzometr va aruz. Aruz vazni tarixi. Aruz poetikasi: janrlar, bayt, misra, rukn, qofiya va radif tushunchalari. Barmoq vazni tarixi va poetik xususiyatlari. Sarbast vazni. Erkin va oq she'r.

Ijodiy metod. Ijodiy metodlar va ularning shakllanish prinsiplari. Ijodiy metodning milliy va individual omillari. Ijodiy metod va falsafa. Ijodiy metod va

ijodkor dunyoqarashi masalalari. Klassitsizm universal metod sifatida. Sentimentallik va sentimental badiiy talqin. Romantizm metodi: G'arb va Sharq romantizmi. Realizm va naturalizm metodlari o'rtasidagi umumiy va xususiy jihatlar. Modernizm adabiyoti: dekadent adabiyoti, syurrealizm, impressionizm, ekspressionizm, ekzistensializm, absurdizm.

Adabiyotlar:

1. Мирзиёв Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2018 йил истиқболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи. // Халқ сўзи газетаси. 2018 йил 16 январ, №11.
2. Адабий тур ва жанрлар. Биринчи том. – Т., 1991.
3. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т., 2000.
4. Боров Ю. Эстетика. – М., 1981.
5. Бахтин М. Романда замон ва хронотоп шакллари. Рус тилидан У.Жўрақулов таржимаси. – Т., 2015.
6. Волков И. Теория литературы. – М., 1995.
7. Жўрақулов У. Худудсиз жилва. – Т., 2006.
8. Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр.Хронотоп. – Т., 2015.
9. Жўрақулов У. Алишер Навоий “Хамса”сида хронотоп поэтикаси. – Т., 2017.
10. Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси.– Т., 2011.
11. Каримов Б. Руҳият алифбоси. – Т., 2016.
12. Мели С. Сўзу сўз. – Т., 2020.
13. Олимов М. Ҳозирги ўзбек адабиётида пафос муаммоси. – Т., 1994.
14. Султон И. Адабиёт назарияси. – Т., 2002.
15. Тарозий Аҳмад. Фунун ул-балоға. Масъул муҳаррир Б.Ҳасанов. – Т., 1996.
16. Теория литературы. В двух томах. Том 1. Н.Д.Тамарченко, В.И.Тюпа, С.Н.Бройтман. Теория художественного дискурса. Теоретическая поэтика.-М., 2004.
17. Уэллек Р., Уоррен О. Теория литературы. Перевод с английского А.Зверова, В.Харитоновой, И.Илиной.-М., 1978.
18. Фитрат А. Адабиёт қондалари. Нашрга тайёрловчи Ҳ.Болтабоев.-Т., 1995.
19. Хализев В.Е. Теория литературы. – М., 1999.
20. Пospelев Г.Н. Теория литературы. – М., 1978.
21. Шарқ мумтоз поэтикаси. – Т.,2008.
22. Қуронов Д. Адабиёт назарияси асослари. – Т., 2019.
23. Қуронов Д. ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2011.

24. Хусайний Атоуллоҳ. Бадойиъу-с-санойиъ. – Т., 1981.

Elektron manbalar:

1. www.ziyo-net.uz
2. www.litera.ru.
3. www.philologs.narod.ru.

Baholash mezonlari

Kirish sinovi ogʻzaki ravishda oʻtkazilishi belgilangan boʻlib, 100 ballik mezon asosida baholanadi.

Har qaysi savolga yozgan javobi quyidagicha baholanadi:

Har bir savol uchun ball	Javobga qoʻyiladigan talablar
86-100	Qoʻyilgan savolga toʻliq javob bergan. Nazariy jihatlarini yoritishda xatolik va chalkashlikka yoʻl qoʻyilmagan. Mustaqil ravishda mushohada yuritib bayon etilgan. Amaliy misollar bilan asoslab bayon etilgan. Xulosani toʻgʻri shakllantirgan. Fikrlar erkin bayon etilgan.
71-85	Savolning mohiyatini tushungan. Javobni yoritib bera olgan. Amaliy misollar keltirilgan. Tasavvurga ega. Qisqacha xulosa bergan. Fikrlarni sodda bayon etgan.
55-70	Savol mohiyatini tushungan. Javob yoritilgan, qisqa shaklda. Misollar bilan asoslanmagan. Xulosa qilingan.
0-54	Savolning ayrim elementlarigina yoritilgan, yoki umuman yoritilmagan. Savol boʻyicha aniq tasavvurga ega emas.

NAMUNAVIY SAVOLLAR

1. Poetik nutqqa xos spesifik belgilar. Belinskiy tadqiqotlari
2. Badiiy adabiyotda shakl va mazmun kategoriyasi

3. Matyoqub Qo'shjonovning adabiy-nazariy qarashlari
4. Psixobiografik metodga xos tamoyillar.
5. Jahon adabiyotida romantizmning tutgan o'rni
6. Formal metod tanqidi. (metod tarixi va Jirmunskiy tadqiqotlari)
7. Bahodir Sarmisoqovning adabiy-nazariy qarashlari.
8. Adabiyotshunoslik metodlari tasnifi
9. Obrazlar tasnifi: megaobraz tabiati
10. Mifopoetik tafakkurga xos xususiyatlar.
11. Suvon Meliev va Belinskiyning adabiy-nazariy qarashlari.
12. Retsepsion estetika tabiati. Retsepsion nazariya va hermenevtikaning uzviyligi
13. Dunyo adabiyotshunosligida formal maktabning tutgan o'rni
14. Vulgar sotsiologizm tanqidi. O'zbek va jahon adabiyotshunosligida tanqid va tahlil muammosi
15. Rolan Bartning adabiy-nazariy qarashlari
16. Psixologik adabiyotshunoslik: asoschisi, namoyandalari, tamoyillar
17. Adabiyotshunoslik janrlari xususida
18. Psixanaliz va badiiy ijod. Ekzistensializmning ijodga ta'siri
19. Abdug'afur Rasulovning adabiy-nazariy qarashlari
20. Ijodiy metod bilan adabiyotshunoslik metodlarining farqi
21. Syujet va obraz tarixi xususida. Arxip masalasi
22. Hermenevtika va metodologiya.
23. Umarali Normatovning adabiy-nazariy qarashlari
24. Retsepsion estetika tabiati. Retsepsion nazariya va hermenevtikaning uzviyligi nimada?
25. O'zbek va jahon adabiyotshunosligida intertekstuallik muammosi
26. Sent-Bovyov adabiyotshunoslik metodlari haqida
27. Ozod Sharafiddinovning adabiy-nazariy qarashlari
28. Struktural adabiyotshunoslik: asoschisi, namoyandalari, tamoyillar.
29. San'at va uning turlari: talqin materialiga ko'ra turlari: me'morlik, haykaltaroshlik, rassomlik, musiqa, raqs, so'z san'ati.
30. Adabiyot so'z san'ati, adabiyot so'zininng lug'aviy ma'nosi.
31. Adabiyot termini va uning tarixiy taraqqiyot bosqichlari.
32. Adabiyotning falsafa, estetika, psixologiya va boshqa sohalar bilan bog'liq jihatlari
33. Adabiyotda obrazlilik va obrazli tafakkur.
34. Nasriy asarlarda til va badiiy uslub.
35. Adabiyotshunoslik metodologiyasi: metodologiya tunchasi, falsafiy, nazariy, individual faktorlari
36. Metodologiya adabiyot nazariyasining asosiy muammolaridan biri o'laroq nazariy va tarixiy poetikaga tayanishi.
37. Jahon poetik tafakkuri tarixi va ilmiy-nazariy metodlar
38. Qiyosiy-tarixiy, tipologik, formal maktabning metodologik xususiyatlari.

39. Struktural, biografik va psixoanalitik, germeneytik metodning o'ziga xosligi.

40. M.Baxtin va uning polifoniya, xronotop nazariyalari.

41. A.N.Veselovskiyning evolyusion tipologiyaga oid nazariyasi

42. M.M.Baxtin "katta zamon" ichidagi dialog, "men" va "birov", "muallif" va "qahramon" nazariyalari.

43. "Nazariy poetika" istilohining adabiyot tarixi, tarixiy poetika va struktural poetika bilan munosabati.

44. Nazariy poetika ilmining ilmining asoschilari.

45. San'at va uning turlari, so'z san'ati, badiiy asar, zamonaviy adabiy janrlar, she'r tuzilishi, badiiy shakl va mazmun nazariy poetika predmeti sifatida.

46. Badiiy so'z va uning boshqa san'at turlari bilan munosabati.

47. Sintetik san'atlar: teatr va kino. So'z san'atining mohiyati va spesifikasi.

48. Biografik metodning ijodkor biografiyasi bilan uzviy bog'liqligi.

49. Ijtimoiy omillarning biografik metodning shakllanishidagi o'rni.

50. Sharl Sent-Buyov, Andre Morua tadqiqotlari biografik metodning yangi bosqichi sifatida.

51. Psixoanalizning maydonga kelishi: Z.Freйд, K.Yung, E.Fromm.

52. Libido, ego, superego psixoanalitik talqiniga kalit tushunchalari sifatida.

53. Psixoanalizda biofil va nekrofil tushunchalari.

54. Psixoanalizning badiiy ijod bilan munosabati.

55. Badiiy ijodda ijodkor pozitsiyasi, dunyoqarashi va milliy mansubligi masalasi

56. Ijod jarayoni: mavzu tanlash, material yig'ish, materiallarni tizimli joylashtirish, yozish jarayonlari

57. Ijodiy jarayon va estetik ideal.

58. Ijodiy jarayonda pafos go'zallik, xunuklik, fojiaiviylik, dramatiklik, komiklik, sentimentallik.

59. Ijod psixologiyasi.

60. Ijod jarayoni va ijodiy metod mushtarakligi.

61. Badiiy adabiyotda umuminsoniylik, milliylik va individuallik.

62. Adabiyotda xalq tili va folklor elementlari.

63. Zamonaviy adabiyot va milliy til, estetik ideal va milliylik.

64. Badiiy asarda mazmun va shakl uyg'unligi.

65. Badiiy asar tushunchasi: badiiy, nazariy va estetik kriteriyalari. 38. Badiiy asarda mazmun va shaklga xos komponentlar.

66. Badiiy asarda syujet, kompozitsiya va fabula.

67. Adabiyotda qahramon, obraz, portret va xarakter muammosi.

68. Badiiy asar obrazlari tizimi va ilmiy-nazariy tasnif muammosi.

69. Badiiy obraz va xronotop.
70. Tarixiy obraz spesifikasi va turlari
71. Tarixiy obraz talqinida badiiy to‘qimaning o‘rni.
72. Tarixiy-biografik obraz, “volter-skotcha” obraz .
73. O‘zbek tarixiy romanlarida bosh qahramon masalasi.
74. Adabiy tur va janrlar tixzimida adabiy janrlarni belgilash prinsiplari.
75. Epos va uning janrlari: lirika, drama, epos.
76. Modernizm adabiyotida roman, postmodernistik roman xossalari.
77. Tuyuq janrining spesifik xususiyatlari.
78. Saj’ va tuyuq munosabati.
79. She’riy vaznlar masalasi.
80. Ijodiy metodlar va ularning shakllanish prinsiplari.